

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

MIRZAYEVA NARGIZOY SANJAROVNA

**“UY” KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI
(ingliz, o‘zbek va rus tillari materiallari asosida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tajimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

UO‘K: 811.111'25:008
811.512.133'25:008
811.161.1'25:008

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Mirzayeva Nargizoy Sanjarovna

“Uy” konseptining lingvokulturologik tadqiqi (ingliz, o‘zbek va rus tillari
materiallari misolida) 3

Мирзаева Наргизой Санжаровна

Лингвокультурологическое исследование концепта «дом» (на материале
английского, узбекского и русского языков) 25

Mirzaeva Nargizoy Sanjarovna

Linguocultural research of the concept “home” (materials based on the English,
Uzbek and Russian languages)..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

MIRZAYEVA NARGIZOY SANJAROVNA

**“UY” KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI
(ingliz, o‘zbek va rus tillari materiallari asosida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tajimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3871 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz, (rezyume)) Andijon Davlat chet tillari instituti veb-sahifasining (www.adchti.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tursunova Odinaxon Azimjanovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Gulyamova Shaxnoza Kaxramonovna
filologiya fanlari doktori, v.b. professor

Toirova Nargiza Isaqovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Andijon shahar, Bobur shohko'chasi, 5-uy. Tel: 0(374)223-42-76; faks: 0(374)223-42-76; e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100 Andijon shahar, Bobur shohko'chasi, 5-uy. Tel: 0(374)223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

A.Dj.Atboyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.I.Umarxodjayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash goshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida turli madaniyatlar doirasida til voqeligini tizimli tahlil qilish va til vositalarini lingvokulturologik yo‘nalishlarda o‘rganish yetakchi o‘ringa ko‘tarilmoqda. Xususan, bunda tilning struktur-grammatik, funksional xususiyatlarini har tomonlama bilishga doir bir qancha nazariy asoslangan paradigmalar paydo bo‘lib, dunyodagi tillarni bir-biriga qiyoslab, chog‘ishtirib tipologik jihatdan o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Shu sababli turli til oilalarga mansub tillarda birliklarni tizimli ravishda kategorial-semantik tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida konseptosferani turli uslubda nazariy-amaliy aspektda o‘rganishga ehtiyoj ortib bormoqda. Buning natijada, ularni muayyan madaniy konseptlar kontekstida qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, tilning semantik hududidagi o‘ziga xosliklarini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan, turli tizimli tillarda “uy” konseptining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etish, “uy” konseptini aks ettiruvchi leksemalarning badiiy asarlarda, shuningdek maqol va matallardagi tarkibiy tuzilmalarini ingliz, o‘zbek va rus tillari manbalari asosida o‘rganish, freym tahlili usuli asosida “uy” semantik maydonining yadro va periferiyalarini aniqlash zarurati mavjud.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda turli tillarning qiyosiy tadqiqini ilmiy asoslash, qardosh bo‘lmagan tillarning o‘xshash va farqli xususiyatlarini ochib berish zamonaviy tilshunoslikning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Xususan, “Aholi orasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish va ularni mukammal o‘zlashtirish uchun zarur sharoitlar yaratish, xorijiy tillarni o‘qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta’limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish”¹ kabi vazifalar belgilangan. Bunda ingliz, o‘zbek va rus tillarida “uy” konseptining ta’riflanishi, og‘zaki va yozma muloqot jarayonida uning darajasini belgilash, lingvokulturologik asosini aniqlash, funksiyaviy darajalarini belgilash, uning konsept sifatida olingandagi ta’rifini berish dolzarb masala hisoblanadi.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF 4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari» ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Muammoning o’rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda milliy tillar konseptosferalarni tizimli talqin qilish muammosi bir qator tadqiqotlarning obyekt sifatida o’rganilgan. Xorij tilshunos olimlari S.A.Askoldov, S.G.Vorkachyov, Z.D.Popova, N.M.Kravsova, Y.A.Menzairova, N.N.Boldirev, V.I.Karasik, Silvia Melo-Pfeifer, Ray Jackendoff, Rubinstein turli tillardagi konseptlarni ilmiy asosda tadqiq etganlar².

Mamlakatimizda turli tizimli tillarda konsept tushunchasi N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, Sh.Usmonova, D.Lutfullayeva, Sh.Iskandarova, M.R.Galiyeva, A.A.Abduazizov, D.U.Ashurova, M.D.Djusupov, A.E.Mamatov, Sh.Safarov, O’Q.Yusupov, G’Xoshimov J.Yakubov, M.A.Abduvaliyev, G.Ergasheva, Z.A.Kasimova, D.Qozoqboyeva, M.Qosimova, R.Sobirova kabi tilshunos olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan³.

² Аскольдов С.А. Концепт и слово. Статья. Опубликовано в книге: Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология / Под общ. ред. В.П.Нерознака. – Москва: Academia, 1997. – С. 267-279. Воркачев С.Г. Концепт “счастья” в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа: Монография. Краснодар: изд-во Кубан. гос. техн. ун-та, 2002. – С. 142. Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та, 2000. – С. 30. Кравцова Н.М. Концепт «человек телесный»: когнитивное моделирование и переносы (на материале сопоставительного анализа древнерусского и древнеанглийского языков); Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тюмень: 2008. – С. 30; Галиева М.Р. Вербализация концептосферы word/cўз/слово в английской, узбекской и русской языковых картинах мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент; 2010. – С. 28. Болдырев Н.Н. Концептуальная основа языка//Когнитивные исследования языка. Вып. IV. Концептуализация мира в языке: коллектив. моногр. – Москва: Ин-т языкознания РАН; Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2009. – С. 460; Карасик В.И. Определение и типология концептов// Этнокультурная концептология: сб. науч. тр. /Калм. гос. ун-т. – Вып. 1. – Элиста: Изд-во Калм. ун-та, 2006. – С. 332.

³ Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият. 2013. – Б. 320; Lutfullayeva D. Pragmatic features of official texts and documents. – Anglisticum 2020 // online. Исқандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Тошкент: Фан. – 1998. – Б. 50; Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq. 2015. – B. 176; Ашурова Д.У. Новые подходы к лингвистике текста. – Хорijiy filologiya. – №3. – Samarqand. – 2011. – B. 26-33; Бабушкин А. П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1996. – С. 38; Вахронова Д.К. Olamning lisoniy manzarasi tasvirida kontsept va kontseptosfera// Хорijiy filologiya, 2019. – №3. – B. 62-68; Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent – Noshir, 2019. – B. 160; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Санзор, 2006. – Б. 25-46; Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: “Ўзбекистон Республикаси энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2013. – Б. 283; Yusupov O’Q. Tilshunoslikdagi yangi yo’nalishlar va ularda ishlatiladigan ayrim istilohlar. Filologiya masalalari. – Toshkent, 2011; Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономии в когнитивной лингвистике. // Sistem-struktur tilshunoslik muammolari. Filologiya fanlari doktori, professor N.K.Turniyozov tavalludining 70-yilligiga bag’ishlangan Respublika ilmiy-

Ushbu tadqiqot avvalgi ishlanmalardan quyidagi lingvistik jihatlari bilan ajralib turadi: 1) turli tizimli tillarda “uy” konseptini ifoda vositalarining leksik-semantik xususiyatlari yoritilgan; 2) zamonaviy ingliz, o‘zbek va rus tillarida “uy” freymining turli xil konseptual belgilar bilan ifodalanishi aniqlangan; 3) ingliz, o‘zbek va rus tillarida “uy” konseptining ifodalanishidagi o‘ziga xos lingvokulturologik xususiyatlari badiiy matnlar namunalari asosida tahlil etilgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Lisoniy manzarada konsept muammolarini o‘rganish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz, o‘zbek va rus tillarida “uy” konseptining lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikda lingvokulturologik tahlil, konsept va freym tushunchasiga doir nazariy qarashlarni sharhlash va munosabat bildirish;

ingliz, o‘zbek va rus tillarida “uy” konseptini ifodalovchi lisoniy vositalarning o‘xshash va noo‘xshash farqli jihatlari, maydonning tabiati hamda ular o‘rtasidagi tizimli munosabatlarni aniqlash;

ingliz, o‘zbek va rus tillarida “uy” konsepti leksik manzarasini tashkillovchi birliklarning asimmetrik xususiyatlarini ko‘rsatib berish;

leksik-semantik, konseptual ma’no va tushuncha munosabatlari orqali “uy” konseptining lingvokulturologik mohiyatini ochib berish;

chog‘ishtiralayotgan tillarda “uy” konseptini hosil qiluvchi lisoniy birliklar modellarini ishlab chiqish va tillararo ekvivalentligi va adekvatligi masalasini yoritib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz adabiyoti namoyandalari⁴, o‘zbek adiblari, yozuvchilarining asarlarida⁵ hamda ikki tildagi izohli lug‘atlarda⁶ va rus adiblari⁷ hamda rus tilidagi lug‘atlarda⁸ uchraydigan “uy” semantikasiga ega lisoniy birliklar tanlab olingan.

nazariy konferentsiya materiallari. – Samarqand, 2010; Yaqubov J.A. Kontseptning semantik qirralari. – “Xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2018-yil 11-aprel. 2-kitob. – Farg‘ona, 2018. – B. 227-228; Қосимова М.З. Ўзбек ва инглиз тилларида бахтлилик ва бахтсизлик концептуал бинар оппозицияси: Филол. Фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Андижон, 2021. – Б. 57.

⁴ Carol Topp. Homeschool Co-ops // How to start them, run them and not burn out, 2008, P.56. Arthur Burgoyne. Homestead, 2021; Lacy Williams. The homesteader’s sweetheart, 2012, – P.164; Maugham W.S. Up the Villa. United Kingdom. Heineman. 1941. – P. 129.

⁵ Xolmirzayev Sh. O‘n sakkizga kirmagan kim bor. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 98; Шарипов Ж. Хоразм. Роман. – Тошкент: Бадий адабиёт. – Б. 384; Шухрат. Олтин зангламас, Роман. – Тошкент: Шарк, 1995. – Б. 398; Ҳамид Ғулом. Мангулик. – Тошкент, 1980. – Б. 59.

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди / А.Мадвалиев тахр. ост. – Тошкент: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – Б. 154; Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият. 2013. – Б. 320; Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Университетлар ва педагогика институтларининг студентлари учун қўлланма. Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 400; Худойберганова Д. Лингвокультуроология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – Б. 50.

⁷ Меркулов В. В помощь астрологу. Litres, 2018. – С. 191; Моэм. В.С. Вверх по вилле. United Kingdom. Heineman. – С. 129; https://librebook.me/up_at_the_villa. Горький М. «Жизнь Клим Самгина». Verlag-Kniga. 1927-1931. – P. 573; Достоевский Ф.М. «Подросток». www,100bestbooks.ru., Сташков Г. Августейший бунт: Дом Романовых накануне революции, 2013. – С. 319.

Tadqiqotning predmeti “uy” konseptual maydonini tashkil etuvchi lisoniy birliklarning o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi funksional - stilistik hamda pragmatik, leksik-semantik va milliy-madaniy jihatlarini ko‘rsatib berishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kognitiv modellashtirish, freym, distributiv, statistik, funksional va qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chog‘ishtiralayotgan tillarda “uy” konseptini hosil qiluvchi ingliz tilida *home, homeland, family*, o‘zbek tilida esa *uy, vatan, oila*, rus tilida *dom, rodina, dinastiya - dom Romanovix* va boshqa lisoniy birliklarining semantik, sinonimik munosabatlari dalillangan;

“uy” konseptining umumiy belgi-xususiyatlari, semantikasi, lisoniy reprezentlari ro‘yxati tuzilib, yadro va periferiya a‘zolari aniqlangan;

o‘zbek, ingliz va rus tillarida uy konseptining denotativ va konnotativ ma‘nolari lingvokulturologik jihatdan misollar orqali asoslangan;

leksik-semantik, konseptual ma‘no va tushuncha o‘rtasidagi “uy” konseptining lingvokulturologik mohiyati tahlil etilib, leksemalarning ingliz tilida 12 ta, o‘zbek tilida 10 ta, rus tilida 9 ta mavzuviy guruhlari mavjudligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

chog‘ishtiralayotgan tillarda “uy” konseptiga ega til birliklarining sintagmatik plandagi valentlik imkoniyatlari hamda “uy” leksemasini morfologik tarkibiga moslangan tayanch va transformatsion modellar ishlab chiqilgan;

o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi “uy” konseptida uchraydigan leksik birliklarni chog‘ishtirish usuli bilan o‘rganish natijasida tillararo izomorf hamda allamorf jihatlar asoslangan;

“uy” konseptiga tegishli lisoniy birliklarning ahamiyati shuningdek, ularning pragmatik, funksional hamda semantik jihatlarini ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy xulosalar dalillangani, barcha materiallar aniq adabiyotlardan keltirilgani, foydalanilgan namunalar va izohlar faktik hamda analitik lisoniy manbalarga asoslanganligi, ishda zamonaviy tadqiq usullaridan foydalanilganligi, ilmiy materiallar respublika va xalqaro doirada tashkil etilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilganligi,

⁸ Англо-русский словарь синонимов, Thesaurus. – Москва: Иностранный язык, Оникс, 2005. – С. 413; Абрамов Н. Словарь русских синонимов и сходных по смыслу выражений / Н. Абрамов. – Москва: Русские словари, 2007. – С. 951; Апресян Ю.Д. Новый объяснительный словарь синонимов русского языка. Под общим руководством акад. Ю.Д. Апресяна. – Москва: Вена: Языки славянской культуры: Венский славистический альманах, 2004. – С. 1488; Ахманова, О.С. Словарь лингвистических терминов / О. С. Ахманова. – 2-е изд., стер. – Москва: УРСС, (Калуга: ГУП Облиздат). 2004. – С. 569; Бабенко Л.Г. и др. Большой толковый словарь русских глаголов: свыше 10 000 глаголов. Идеографическое описание. Синонимы. Антонимы. Английские эквиваленты / под общ. ред. Л.Г.Бабенко. – Москва: АСТ-ПРЕСС, 2007. – С. 573; Бенвенист Э. Словарь индоевропейских социальных терминов Прогресс, Универс: 1995. – С. 454; Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка: избр. ст. / В.И. Даль; совмещ. ред. изд. В.И. Даля и И.А. Бодуэна де Куртенэ. – Москва: Олма-Пресс: Крас. пролетарий, 2004. – С. 700; Ефремова Т.Ф. Толковый словарь словообразовательных единиц русского языка: около 1900 словообразовательных единиц, Издательство: “Русский язык”. 1996. – С. 640; Ефремова Т.Ф. Новый словарь русского языка / Т.Ф.Ефремова. – Москва: Дрофа, Русский язык, 2000. – С. 1233; Федоров А.И. Фразеологический словарь русского литературного языка: около 13000 фразеологических единиц / А.И.Федоров. – 3-е изд., испр. – Москва: АСТ: Астрель, 2008. – С. 878.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi ro‘yxatiga tegishli milliy hamda xorijiy jurnallarda nashr qilingan maqolalar, taklif va tavsiyalar, xulosalarning amaliyotga joriy qilingani, erishilgan natijalarning vakolatga ega tashkilotlar tomonidan ma’qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati quyidagicha ifodalanadi: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz, o‘zbek va rus tillarida “uy” leksemasi maydonini qiyoslash asosida chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar lingvokulturologiya va zamonaviy leksikologiya fanlari uchun muayyan ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan xulosalardan qiyosiy tipologiya, leksikologiya, lingvokulturologiya, stilistika kabi nazariy fanlar kursi uchun ma’ruza matnlari va seminar materiallari sifatida, leksikografiya amaliyotida inglizcha-o‘zbekcha-ruscha lug‘atlar tuzishda, shuningdek, til amaliyoti mashg‘ulotlarida qo‘llanma sifatida foydalanish imkoniyati mavjud.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek, ingliz va rus tillarida “uy” konseptining lingvokulturologik xususiyatlari tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

chog‘ishtirilayotgan “uy-home-дом” konseptining umumiy belgi-xususiyatlari, semantikasi, lisoniy reprezentlari ro‘yxati hamda tadqiqotning markazi ya’ni yadro va periferiya a’zolari kabi xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar akademiyasida 2021 – 2022-yillarda bajarilgan “O‘zbek harbiy san’ati tarixi” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligining 2023-yil 18-oktyabrdagi 10/2064-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga tadbiq etilishi yuzasidan erishilgan ijobiy natijalar fundamental loyiha doirasida dastur, elektron resusrlar, nazariy va amaliy materiallar tayyorlashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan;

o‘zbek, ingliz va rus tillarida uy konseptining denotativ va konnotativ jihatdan misollar orqali asoslanishiga oid xulosalari hamda ifoda etuvchi til birliklarining badiiy matnlarda, maqol va matallardagi struktural modellarining ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi universal va unikal jihatlari O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida 2021 – 2022-yillarda bajarilgan Innovatsion I-OT-2021-65 “e-ziyorattourizm” elektron platformasini yaratish doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining 2023-yil 16-noyabrdagi 05-720-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, uy konseptining denotativ va konnotativ ma’nolaridagi lingvokulturologik talqinlarning ilmiy ta’minoti mukammallashtirildi;

leksik-semantik, konseptual ma’no va tushuncha o‘rtasidagi “uy” konseptining lingvokulturologik mohiyati hamda “uy” konseptual maydonini tashkil qiluvchi lisoniy birliklarning stilistik hamda pragmatik, leksik-semantik jihatlari O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” nomli eshittirishlar seriyasida (2023-yil avgust va sentyabr oylari) foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat

muassasasining 2023-yil 18-oktyabrdagi 04-36-1562-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "uy" konseptining mohiyatini ochib beruvchi leksemalarning sinonimlar tarkibini tasniflash kabi ma'lumotlarga ega bo'lish bilan birga eshittirishlarning ilmiy saviyasi ortishiga xizmat qilgan;

chog'ishtiralayotgan tillarda "uy" konseptini hosil qiluvchi ingliz tilida *home, homeland, family*, o'zbek tilida esa *uy, vatan, oila*, rus tilida *дом, родина, династия* - *дом Романовых* va boshqa lisoniy birliklarining semantik, sinonimik munosabatlari O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida 2021–2022-yillarda bajarilgan Innovatsion I-OT-2021-65 "e-ziyorattourizm" elektron platformasini yaratish doirasida foydalanilgan (O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining 2023-yil 16-noyabrdagi 05-720-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, uy konseptining hosil qiluvchi lisoniy birliklarining semantik, sinonimik munosabatlarning ilmiy saviyasini oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro hamda 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot ishi mavzusiga oid jami 13 ta maqolalar nashr qilingan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shulardan, 2 tasi Respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 154 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

«**Kognitiv tilshunoslikda konsept tadqiqiga nazariy yondashuvlar**» deb nomlangan birinchi bob uch fasldan iborat bo'lib, birinchi faslda "**Olamning lisoniy manzarasida madaniyatning aks etishi**" to'g'risida mulohazalar bildirilgan. "Olam manzarasi" tushunchasi birinchi marta XVII asrda yashab o'tgan golland faylasufi Spinozaning⁹ asarida uchraydi. XVIII asrga kelib Jeyms Xarris har bir tilda dunyoning o'ziga xos tasviri mavjud ekanligi haqidagi qarashlarini ilgari surdi. Keyinchalik V.Fon Gumboldt, A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, L.Vitgenshteyn, V.G.Naumov, A.Vejbitskaya va boshqalarning ishlarida olamning lisoniy manzarasi masalasi turli darajalarda yoritib berildi.

⁹ Spinoza B. Grammar compendium of Hebrew. (José Luis Cárdenas), April 2006. – P. 102-105.

Umuman olganda, “olamning lisoniy manzarasi” tushunchasi V.Fon Gumboldt davridan tortib bugungi kunga qadar jahon tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham keng o‘rganib kelinmoqda. Jumladan, D.K.Baxronovning fikriga ko‘ra, olam manzarasi tajriba orqali to‘plangan, ong ostida yig‘ilgan konseptosferalar va stereotiplar yig‘indisi ekanligini e‘tirof etadi. “Olam manzarasining kategoriyalshtirilishi individual mualliflik modifikatsiyasi va etnosga xos bilimlar integratsiyasida lisoniy va mental ifodasining o‘zaro ta‘sirini asoslovchi, o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi ko‘p qirrali kognitiv-stilistik hosila sifatida namoyon bo‘lmoqda”¹⁰.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “**Konseptning lingvistik talqini**” deb nomlanadi. Dunyo tilshunosligida “konsept” terminining qo‘llanishiga doir nazariy qarashlar, konseptlarning tuzilishi va turlari, lingvokulturologiyada “konsept” terminining o‘rni va ahamiyati singari masalalar haqida nazariy fikr-mulohazalar yoritilgan.

So‘nggi yillarda tilshunoslikda “konsept” atamasi alohida mazmun kasb etib, adabiyotlarda olimlar tomonidan mantiqiy kategoriya, milliy mentalitetning asosiy birligi, amaliy, falsafiy tushuncha, “ko‘p o‘lchovli ta‘lim” sifatida keltiriladi. S.H.Lyapin va V.I.Karasikning kompleks yondashuvida konsept ontologik pozitsiyadan madaniy hodisa sifatida qaraladi hamda konseptlar inson borlig‘ining til, san‘at, din kabi turli sohalariga aylanuvchi birlamchi madaniy hosilalar deya talqin etiladi¹¹. Konseptlar dunyo haqidagi bilimlarni saqlashga imkon beradi va jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan ma‘lum toifalar va sinflar bo‘yicha ma‘lumotlarni saqlash orqali obyektiv tajribani qayta ishlashga hissa qo‘shadigan konseptual tizimning tarkibiy elementlariga aylanadi¹². O‘.Q.Yusupov konseptni - ongimizda mavjud tashqi yoki ichki dunyodagi biror narsa yoki hodisa haqidagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar, ularga bo‘lgan ijobiy, salbiy yoki neytral munosabatdir, - deya keltiradi¹³. R.M.Frumkinning fikricha, “konsept” atamasidan foydalanish semantikaning predmet sohasini va uning boshqa fanlar bilan o‘zaro ta‘sir doirasini kengaytirish bilan bog‘liq. O.G.Proxvacheva konseptlarni madaniy hodisalar deb hisoblaydi va ularni jamoaviy qadriyatlarga kiritadi. D.U.Ashurova konseptni uyg‘un birlik hosil qiluvchi mental tuzilma sifatida baholaydi¹⁴. V.N.Teliyaning fikricha, konsept – denotatning xossalari haqidagi bilimlarning butun majmuasidir. Konseptning moddiy asosi, ko‘rsatkichi – so‘zdir¹⁵.

“Konsept” tushunchasi talqini natijasida tor ma‘noda “konsept” so‘z ma‘nosining konseptual komponenti bilan tenglashtirilib tadqiqotchilar tomonidan denotat, designat, signifikat, leksik tushuncha, referent shaklida atalishi, keng ma‘noda – “konsept” atamasi tilshunoslikda kognitiv yondashuv bilan bog‘liq holda qo‘llanishi aniqlandi.

¹⁰ Бахронова Д.К. Ўзбек ва испан тилларида олам манзарасининг лингвокогнитив категорияланиши: Филол. фан. д-ри ...дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – Б. 5.

¹¹ Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Москва: Гнозис, 2004. – С. 156-157.

¹² Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Т., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. Составители: – М., 1997. – С. 90.

¹³ Yusupov O‘.Q. Chog‘ishtirma tilshunoslikning yangi vazifalari. Xorijiy filologiya. – Samarqand. – 2011. – №3. – В. 10.

¹⁴ Ашурова Д.У. Новые подходы к лингвистике текста. – Хорижий филология. – №3. – Самарканд. – 2011. – С. 32.

¹⁵ Телия В.Н. Человеческий фактор в языке: Языковые механизмы экспрессивности. – Москва: Наука, 1991. – С. 96.

“Ma’no” va “konsept” tushunchasi ilmiy tahlil qilinganda konsept aqliy tuzilma sifatida konseptosferaning birligi, ma’no tilning semantik tizimi birligi ekanligi o’rganildi. Ma’no o’zining tizimli semasi bilan konsept tashkil etuvchi ma’lum xususiyatlarni bildiradi, lekin bu har doim konsept semantik mazmunining bir qismi hisoblanadi. O.G.Proxvacheva “konsept” va “tushuncha” atamalarini ajratar ekan, tushuncha abstraksiyaning eng oliy shakli sifatida obyektarning xossalari va munosabatlarini umumlashgan shaklda mustahkamlashi va inson tafakkurining kategoriyalaridan birini tavsiflovchi ilmiy mexanizm ekanligini ta’kidlaydi. Bizning fikrimizcha, konsept – bu tafakkur mahsuli, idrok hodisasidir. Uning to’la shakllanishida va verbal vositalar yordamida voqelantirilishida o’ziga xos qat’iy ketma-ketlikka asoslangan bosqichlar mavjud. Konsept bu kishi ongi va tafakkurida kechuvchi bir-biri bilan chambarchas bog’liq konseptuallashtirish va kategoriyalashtirishning natijasidir.

Konseptning murakkab tuzilishi uning fikrlash jarayonida faol dinamik roli bilan bog’liq – u doimo harakatda bo’ladi, o’zining turli tarkibiy qismlari va xususiyatlarida aktuallashadi, boshqa tushunchalar bilan bog’lanadi va ularni to’ldiradi¹⁶.

Tadqiqotlarda konseptning uchta tarkibiy turi bir darajali, ko’p darajali va segmentli tushunchalar tahlil etilgan. Bir darajali konsept faqat sensorli yadroni o’z ichiga oladi va bitta asosiy qatlamdan iborat. Ko’p darajali konsept bir nechta kognitiv qatlamlarni o’z ichiga oladi, ular asosiy qatlamda aks ettirilgan mavhumlik darajasida farqlanadi. Segment tushunchasi bir xil darajadagi abstraksiyaning bir nechta segmentlari bilan o’ralgan asosiy hissiy qatlam hisoblanadi. Tilda konseptual xususiyatlar semalarga, kognitiv tasniflagichlar esa semantik xususiyatlarga mos keladi.

Konseptni lingvistik tushunishda uch asosiy yondashuv mavjud: 1. Bu yondashuvda hal qiluvchi omil leksik semantikada dunyoni konseptuallashtirish usuli bo’lib, asosiy tadqiqot vositasi konseptual modeli va uning yordamida konsept semantikasining asosiy komponentlari ajratiladi va ular o’rtasidagi barqaror aloqalar ochiladi. Bunday konseptlar soniga har qanday leksik birlik kiradi, uning ma’nosida semantik ifodalash usuli (shakli) ko’rinadi; 2. Tor ma’noda konsept lingvomadaniy o’ziga xoslik bilan belgilangan va u yoki bu tarzda ma’lum bir etnomadaniyatning tashuvchilarini tavsiflovchi semantik jarayonlarni o’z ichiga oladi. Bunday konseptlar konseptosferani tashkil etmaydi, balki unda ma’lum bir qismni – konseptual sohani egallaydi; 3. Cheklovchi konseptlar soniga faqat cheklangan va milliy mentalitetni uning tashuvchilari dunyosiga o’ziga xos munosabati sifatida tushunish uchun kalit bo’lgan semantik shakllanishlar kiradi.

Muloqot jarayonida konseptni faollashtiruvchi vositalar, asosan, lisoniy belgilar hisoblanadi. Konseptni eng to’liq va umumiy shaklda ifodalovchi lisoniy birlik (so’z, ibora, frazeologik birlik, gap va boshqalar) mavjud bo’lib, ular “konsept” nomi sifatida ishlatiladi. Konsept lingvistik ifoda va belgilangan etnomadaniy o’ziga xoslikka ega bo’lgan jamoaviy bilim – ong birligidir.

¹⁶ Стернин И.А. Ko’rsatilgan manba. – В. 58.

Til va madaniyatning o‘zaro munosabatlari tilshunoslardan tomonidan turlicha talqin etiladi. Jumladan, til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar bir yo‘nalishdagi harakat bo‘lib, til voqelikni aks ettiradi, madaniyat esa bu voqelikning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu boisdan til – madaniyatning ko‘zguvidir; til odamlarning tafakkuriga, dunyoqarashiga va xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi. Tildagi mavjud farqlar tavsif, sinonimiya va turli xil tushuntirishlar bilan nutqda bartaraf etiladi; til madaniyat in’ikosi hisoblanib, tilning eng muhim vazifasi madaniyatni saqlab qoladi va uni avloddan-avlodga uzatadi.

Konsept dunyoni lisoniy aks ettirishning ilmiy va lingvistik tavsifidagi markaziy kategoriyadir. Shaxsiy va madaniy tajriba asosida ishlab chiqilgan konseptlar, odamlar ongida ma’naviy meros bo‘lib, dunyoni bilish natijasida, til tasvirini va milliy mentalitetni aks ettiradi.

Birinchi bobning 3-fasli **“Konseptning tasnifi”** deb nomlangan. Shunday qilib, lingvokulturologiyada til asosiy tushunchalar - inson ongida tushunchalarni shakllantirishning asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Konsept orqali so‘z olamning lisoniy manzarasiga kirib, unda boshqa leksik birliklar bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Konsept dunyoni lisoniy aks ettirishning ilmiy va lingvistik tavsifidagi markaziy kategoriyadir. Shaxsiy va madaniy tajriba asosida ishlab chiqilgan konseptlar, odamlar ongida ma’naviy meros bo‘lib, dunyoni bilish natijasi bo‘lib, til tasvirini va milliy mentalitetni aks ettiradi.

Ushbu tadqiqot doirasida til va madaniyatning o‘zaro munosabatlaridagi muammolari ham katta qiziqish uyg‘otmoqda, bu uzoq vaqt davomida ko‘plab olimlarning nuqtayi nazariga tushib, keskin munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi muammosi juda murakkab va ko‘p o‘lchovlidir. Hozirgi vaqtda uning yechimida bir qancha yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Milliy madaniyat muammolariga alohida e’tibor berish kerakki, bu odatda ma’lum bir millatning ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlari majmui sifatida tushuniladi. Har bir milliy madaniyat ahamiyatli bo‘lib, har bir milliy til bir madaniyatlarni ajratib turuvchi o‘ziga xoslikni ifodalaydi.

Shunday qilib, lingvokulturologiyada til asosiy tushunchalar – inson ongida tushunchalarni shakllantirishning asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Konsept orqali so‘z olamning lisoniy manzarasiga kirib, unda boshqa leksik birliklar bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Konsept dunyoni lisoniy aks ettirishning ilmiy va lingvistik tavsifidagi markaziy kategoriyadir. Shaxsiy va madaniy tajriba asosida ishlab chiqilgan konseptlar, odamlar ongida ma’naviy meros bo‘lib, dunyoni bilish natijasi bo‘lib, til tasvirini va milliy mentalitetni aks ettiradi.

Dissertatsiyaning **«Uy» konseptining ingliz, o‘zbek va rus tillarida verballashuvi** deb nomlangan ikkinchi bobi ikki fasldan iborat bo‘ldi. 1-fasl **“Konseptni ifodalovchi birliklarning lisoniy manzarada aks etishi”** deb nomlangan bo‘lib, unda ingliz, o‘zbek va rus tillarida **“uy”** konseptining qo‘llanishi, ingliz, o‘zbek va rus tillarida **“uy”** leksemasining etimologik kelib chiqishi hamda uning morfologik, leksik va semantik xususiyatlari, o‘zbek tilida **“uy”** konseptining leksik-semantik va kognitiv xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Tadqiqotda ingliz, o‘zbek va rus tillarida **“uy”** konseptining mazmunini moddiylashtirish va ushbu konseptning semantik tuzilishini va uning elementlarini aniqlashda **“uy”**ning adabiyotlarda keltirilishi va uning aforizmlarda aks etishi,

shuningdek lugʻaviy maʼlumotlari tahlili asosida “uy” bilan bogʻliq boʻlgan til birliklarini jamladik, konseptning kogniotip tuzilishi asosini, ingliz, oʻzbek va rus tillaridagi sinonimlari hamda soʻzlar toʻplamini tashkil qilishini oʻrgandik. Konseptning asosiy dominantlarini aniqlash uchun S.G.Vorkachyov va I.A.Tarasova metodidan foydalandik. Shuningdek, “uy” konseptini obyektivlashtirishning leksik-frazeologik va individual-mualliflik vositalari aniqlandi va tizimlashtirildi, natijada konsept modelining terminallari toʻldirildi. Tadqiqotda ingliz, oʻzbek va rus tillarida “uy” konseptini ifodalashda tavsiflash usulining qoʻllanishi umumiy xususiyatlar va eng muhim tafovutlarni aniqlash imkonini berdi.

Maʼlumki, har qanday qiymat, leksemaning semantik strukturasi oʻrnidan qatʼi nazar, tegishli kognitiv tuzilmalar boʻyicha operatsiyalar natijasidir. Yuqoridagi mulohazalarimizni amaliy asoslash maqsadida uy leksemasining maʼnosini freym semantikasi jihatidan tahlil qildik¹⁷:

1. Egalik predmeti “uy”.
 - a) shaxs;
 - b) ega emas, balki bir kishi (kontekstiga qarab).
2. Uy. Obyekt.
 - a) uy, moddiy boylik.
 - b) oila.
3. Normaga munosabat.
 - a) normadan ortiq;
4. Reyting.
5. Yangilanmagan.
6. Til turkumlanishi.
 - a) xususiyati, qiymati.


Chunonchi, yuqoridagi misolardan (ikkinchi maʼnoda) “oila” freymi tarkibiga uning uyalaridan (slotlardan) biri, masalan, “oila aʼzolari” kiritiladi va shunga mos ravishda unga tegishli ekstralingvistik axborotlar aktivlashtiriladi: *ota-ona, opa-singil, aka-uka, bobo-buvi va boshqalar*.

Ikkinchi bobning 2-fasli “**Chogʻishtirilayotgan tillarda “uy” konsepti lingvistik ifoda vositalarining struktur-semantik jihatlari**” deb nomlangan boʻlib, “home”/“uy”/“дом” konseptining struktural tahlilida, ushbu konseptning tilda turli lisoniy vositalar bilan ifodalanishini kuzatdik.

“Home” leksemasining boshqa maʼnolarini lugʻatda berilgan tartib asosida tarjima qilish metodi bilan aniqladik: 1. a) shaxsga yoki narsaga tegishli turar joy, qarorgoh (one’s place of residence): *He has been away from home for two weeks*; b) moddiy narsa, yaʼni bino: *There are many homes in our city*. 2. Birgalikda yashovchi oila tomonidan tuzilgan ijtimoiy birlik (the social unit formed by a family living together): *He is trying to make a good home for their children*. 3. a) tanish yoki odatiy muhit: qulay muhit; shuningdek: eʼtiborda, diqqat markazda (a familiar or usual setting: congenial environment *also*: the focus of

¹⁷ Ушаков Д.Н. Толковый словарь русского языка / Под ред. Д.Н. Ушакова. — Москва: Гос. ин-т "Сов. энцикл". ОГИЗ; Гос. изд-во иностр. и нац. слов. 1935-1940. (4 т.). — https://enc.biblioclub.ru/Termin/1135284_DOM.

one`s domestic attention): *The home is where the heart is*; b) yashash joyi (habitat): *The island is home to many species of birds*. 4. a) kelib chiqqan joyi (a place of origin): *Salmon returning to their home to spawn*; b) bosh, asosiy bino (headquarters): *The home of the dance company*. 5. Alohida ehtiyojga muhtoj bo`lgan odamlarni yashash va parvarish qilishni ta`minlaydigan muassasa (an establishment providing residence and care for people with special needs): *Homes for the elderly*. 6. Turli o`yinlardagi maqsad (the objective in various games): *The runner was tagged out at home plate*. 7. Turar joy, qarorgoh (house): *There are several homes for sale in the area*.



1-rasm. Home konseptining asosiy holatini ifodalovchi til omillarining kognitiv jarayoni bosqichlari

Modellar og`zaki va yozma nutqda reallashadi hamda ulardan foydalanib gaplar va matnlar tuziladi. Ingliz, rus va o`zbek tillaridagi “home”, “uy” va “дом” konsepti quyidagi modellarda o`z ifodasini topishi aniqlandi.

Til boyligi ko`rsatkichlaridan biri undagi bir konseptni bir necha usullarda ifodalash imkonini beruvchi sinonim va kvazisinonimlar (qisman yoki noaniq sinonimlar)ning mavjudligidir. Biz “uy” konseptini izohlash uchun ingliz, rus va o`zbek tillaridagi lug`atlarda foydalanilgan holda sinonim va kvazisinonimlarni birlashtirdik:

1-jadval

№	O`ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	RUS TILIDA
1	Uy	Home	Дом, юрта
2	Vatan	Homeland, home town	Родина
3	Ona vatan	Motherland	Родные пенаты
4	Yurt	Country	Страна
5	Xonadon	Apartment	Квартира
6	Boshpana	Shelter	Приют, кров
7	Panohgo`y	Shelter	Пристанище
8	Koshona	Mansion	Дворец
9	Qasr	Castle	Особняк, хоромы
10	Kulba	Hut	Хибара, лачуга, халупа, хибарка, мазанка, лачужка
11	Chayla	Tent, hut	Развалюха

12	Qarorgoh	Residence	Резиденция
13	Oila	Family	Семья, семейство, семейка
14	Hovli	Courtyard	Двор
15	Tashqi hovli	Outdoors, outdoor yard	Внешний двор
16	Ichkari hovli	Courtyard, inner court	Внутренний двор
17	Uy-joy	House, Housing	Жильё
18	Mahalliy	Local	Местный
19	Yashash joyi	Place of residence, Dom	Место жительства
20	Tug'ilgan joy	Place of birth	Место рождения
21	Kindik qoni to'kilgan joy	Birthplace	Место рождения
22	Tom, tom osti	Roof	Кровля
23	Ko'p qavatli uy	Multi-storey building	Высотка
24	Dom	Block	Дом
25	Bolaxonali uy	House with nursery, Kindergarten house	Дом с детской комнатой
26	G'or	Cave	Пещера
27	In	Den, nest	Берлога, логово
28	Uya	Hive	Гнездо, логовище
29	Qafas	Cage	Клеть
30	Dacha, dala hovli	Rancho, cottage	Дача
31	Eshik	Courtyard	двор
32	Saroy	Palace	Дворец
33	Bino	Building	Здание
34	Osmono'par bino	Skyscraper	Небоскрёб
35	Mulk	Property	Усадьба
36	Qal'a	Castle	Замок
37	Yozgi uy	Summer house	Коттедж
38	Xaroba	Ruin	Трущоба
39	Kvartira	Apartment	Квартира, квартирка
40	Yog'och uy	A wooden house	Сруб
41	Minora	Tower	Терем, башенка, башня
42	Inshoot	Facility	Строение
43	Chodir	Tent	Чердак, палатка
44	O'choq	Family hearth	домашний очаг, семейный очаг
45	Qorovulxona	Guardhouse	Сторожка, Караулка
46	Kazarma	Barracks	Барак, Казарма
47	Yotoqxona	Dormitory	Общежитие
48	Turar joy	dwelling, dwelling-place	Обиталище
49	Urug', qarindosh	Relative, ancestry, blood, clan	Род
50	Sulola	Dynasty	Династия
51	O'tov	A yurt (from the Turkic languages) or ger (Mongolian) is a portable, round tent covered and insulated with skins or felt and traditionally used as a dwelling by several distinct nomadic groups in the steppes and mountains of Inner Asia ¹⁸ .	Юрта

¹⁸ <https://en.wikipedia.org/wiki/Yurt>

52	Qo'rg'on	Fortress	Крепость
53	Imorat	Building, structure	Здание
54	Maskan	Habitation	Место
55	Istiqomatgoh	Home	Резиденция
56	Uchastka	A separate, territorial division of a particular farm.	Участок
57	Bolalar uyi	Children's home	Детский дом
58	Madaniyat uyi	House of culture	Дом культуры
59	Keksalar uyi	Home for the elderly	Дом для пожилых людей
60	Mehribonlik uyi	Orphanages	Дом Милосердия
61	Dam olish uyi	Resort, rest home	Дом для отдыха
62	Adiblar uyi	House of writers	Дом писателей
63	Faxriylar uyi	Home of veterans	Дом ветеранов
64	Uy xo'jaligi	Housekeeping	Семья
65	Makon	Home, place, dwelling,	Расположение
66	To'rt devor (xona, uy)	(metaphorical) room, home, house	четыре стены
67	Oshiyon	A yard, a shelter	Двор, приют.
68	Nogironlar uyi	A home for the disabled	Дом для инвалидов
69	Ichki ishlar	Home affairs	Внутренние дела
70	Uy qo'riqchisi	Home Guard, Housekeeper	Домовой охранник
71	Kulba	Hut	Изба, хата, хижина

Ma'lumki, zamonaviy inson dunyo haqidagi bilimlarining ko'p qismini namoyon bo'lishining barcha xilma-xilligida bevosita tajribadan emas, balki matnlardan oladi. Eshitilgan yoki o'qilgan matnlar insonning shakllanishiga, jumladan, uning tiliga matnlarni ishlab chiqarish, o'zgartirish va tushunish uchun qurilma sifatida katta ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotchilar uchun oldingi matnlarini talqin qilish katta ahamiyatga ega. Matn lingvistikasi va madaniy hamjamiyatning har qanday o'rtacha a'zosiga tanish bo'lgan matn bo'lib, uning g'oyasi ushbu jamoa a'zolarining nutqida muntazam yangilanib turadi.

Tilshunoslikda "uy" konseptini obyektivlashtirishning leksik-frazeologik va individual-mualliflik vositalari aniqlanadi va tizimlashtiriladi, buning natijasida konsept psixik modelining terminallari to'ldiriladi. "Uy" fenomenining turli xil xususiyatlari tizimli tillarda so'zlashuvchi til madaniyati tashuvchilari tomonidan aktuallashtiriladi. Matnlarni tahlil qilish va sharhlash alohida o'rin tutadi. Matnlarga badiiy asarlar, og'zaki adabiyotning turli janrlari (frazeologik birliklar, maqollar, matallar), ilmiy, publitsistik matnlar, aforistika kiradi.

O'zbek, ingliz va rus tillarida "uy" konseptining struktur-semantik jihatlarini hosil qilishida A.Morozova taklif qilgan maydon modelining strukturasi tadqiqotimiz uchun asos qilib oldik va ushbu semantik maydonni 3 ta guruhga ajratdik: 1) konsept yadrosi, 2) yaqin periferiya, 3) uzoq periferiya¹⁹:

1. Bino – yashash uchun yoki turli tashkilot, muassasa va shu kabi joylashishi uchun mo'ljallangan. Masalan: *Uch xonali uy. Besh qavatli uy. Ba'zan ko'rinar ko'zga. Shohona uylar ko'rkam.* (G'ayratiy)


¹⁹ Морозов А.А. Концептуальный анализ структуры лексико-семантического уровня объективации концепта "мужественность" в испанском языке. Вестник Челябинского государственного университета, 2010. №22(203). Филология. Искусствоведение, Вып. 46. – С. 82-88.

2. Xona – yashash uchun mo‘ljallangan bino ichidagi. Masalan: *Bu bino uch uy va bir ayvondan iborat. Yorug‘ uy. Keng uy. Uylarda, ayvonlarda xotinlar ko‘p edi.* (Oybek. Tanlangan asarlar)

3. Oila, Vatan – Masalan: *Qirq uy quda bo‘lsa, qirq yil qirg‘in bo‘lmas.* (Maqol) *Yomon arava yo‘l buzar, Yomon kishi uy buzar.* (Maqol) *Farzand – uy obodligi, Kelajak niholidir!* (Y. Mirzo).

4. Muassasa – biror ijtimoiy talabni qondirishga qaratilgan. Masalan: *Mehribonlik uyi. Dam olish uyi. Madaniyat uyi.*

5. Hovli – biror oila yoki xonadon o‘rnashgan bino va binoga taalluqli yer. Masalan: *Qizlik uyga qirq ot boylanar.* (Maqol) *Uylar, ko‘chalar qulf urib gullagan daraxtlar orasida sho‘ng‘igan.* (“Guldasta”).



2-rasm

Konsept maydonining strukturaviy tavsifi “uy” konseptini shakllantiruvchi lisoniy vositalar markaz va periferiyalarni hosil qilishini ilmiy asosladi. “Uy” konseptual maydonining asosiy qismini periferiya maydoni egallaydi, chunki mazkur maydon boshqa konseptlar bilan bitta maydonda kesishib ketgan va bir-biri bilan mazmun jihatdan uzviy bog‘lanib, ular mazmun strukturalarini o‘z qo‘shimcha ma‘no va belgilari bilan boyitishga xizmat qiladi. Konseptual maydonning markaziy, yaqin va uzoq periferiyalarini aniqlash va ularni ko‘rsatuvchi elementlar (lisoniy vositalar)ning joylanishi til birliklarining xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Lisoniy birliklar funksional-semantik maydoni muayyan tuzilishga ega ekanligi isbotlandi. Uning tarkibiy qismlari: yadro – tarkibiy qism, semantik jihatdan sodda va semantik maydonning umumiy ma‘nosini o‘z ichiga olgan leksik birlik yoki bir nechta birliklar; markaz – yadroni o‘rab turgan bir qator qatlamlar – semantik jihatdan murakkabroq qiymatga ega bo‘lgan leksik birliklar; periferiya – asosiy ma‘nolari bilan boshqa turdagi semantik maydonlarga kiradigan va ushbu sohaning semantikasini ma‘lum til birliklari orqali amalga oshiradigan ikkinchi darajali qismlardan iborat bo‘lishi kuzatildi.

Dissertatsiyaning «**Ingliz, o‘zbek va rus tillarida “uy” konseptining ifoda mazmuni va lingvokulturologik tadqiqi**» deb nomlangan uchinchi bobi uch fasldan iborat bo‘lib, birinchi fasl “Ingliz, rus va o‘zbek tillari frazeologik manzarasida “uy” konseptual semantikasining lingvokulturologik xususiyatlar” deb nomlangan. “Home”/“uy”/“дом” konsepti tushinishda frazeologik birliklar va paremiologik birliklar qulay manba hisoblanadi. Frazeologik birliklar, maqol va matallarni tanlanayotganda, biz “uy” konseptini nafaqat bevosita, balki bilvosita ifodalovchi frazeologik birliklar mavjudligini ham inobatga oldik. Frazeologik iboralar har qanday tilning ekspressiv vositalari orasida alohida o‘rin tutadi. Frazeologiya milliy fikrlash va dunyoni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqurroq o‘rganib borish imkonini beradi, chunki u o‘zida milliy turmush tarzini, an‘analarni, asoslarni, e‘tiqod va kuzatishlarni aks ettiradi.

